

2. Антимирова В.В. Лексико-семантические и деривационные характеристики русской лингвистической терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук – Краснодар, 2018. –198с.

3. Рўзметова Д.А. // Талабаларга инглиз тили потенциал лексикасини ўргатиш/дисс... PhD. –Чирчиқ. 2022. – 132 б.

4. Калинин А.В. Лексикология русского языка / А.В. Калинин. –М.: Наука, 1980. –217 с.

## **XORIJIY TILLARNI O`QITISHNING SIFATINI YANGI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TA`LIM SIFATINI OSHIRISH**

**Tulkin Kulibayevich Mardiyev**

SamISI dotsenti

**Sobirjonovna Sevinch Raxmonkulova**

Servis fakulteti IRB-122 guruh talabasi

[xamraevsobir38@gmail.com](mailto:xamraevsobir38@gmail.com)

**Annotatsiya:** Xorijiy tillarni o`qitishning sifatini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta`lim sifatini oshirish, o`quvchilarga xorijiy tillarni o`rganish va o`zlashtirish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga imkon beradi. Interaktiv darsliklar, onlayn ta`lim platformalari va boshqa innovatsion texnologiyalar orqali o`quvchilar o`zlarini qiziqarli animatsiyalar, video materiallar va audio darsliklar orqali ma`lumotlarni oson va samarali o`rganishlari mumkin.

**Kalit so`zlar:** chet tili, metodika, texnologiya, innovatsiya, ko`nikma, malaka.

**Аннотация:** Повышение качества преподавания иностранного языка с использованием новых педагогических технологий позволяет студентам сделать процесс изучения и освоения иностранных языков более эффективным и интересным. С помощью интерактивных учебников, платформ онлайн-обучения и других инновационных технологий учащиеся могут легко и эффективно усваивать информацию с помощью интересных анимаций, видеоматериалов и аудио уроков.

**Ключевые слова:** иностранный язык, методика, технология, инновация, умение, квалификация.

**Annotation:** Improving the quality of foreign language teaching using new pedagogical technologies allows students to make the process of learning and mastering foreign languages more effective and interesting. Through interactive textbooks, online learning platforms and other innovative technologies, students can

easily and effectively learn information through interesting animations, video materials and audio tutorial.

**Key words:** foreign language, methodology, technology, innovation, skill, qualification.

**Kirish:** Til o`rganish kishilik jamiyatida bag`oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo`lmish tilni tabiiy muhitda ya`ni oilada, jamoada uyishgan holda egallash mumkin. Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma`nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo`lgan munosabati va boshqalarni o`rgangan. Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o`zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma`nosini anglatadi. "Innovatsiya" bu ta`lim, ma`lum bosqichlari bo`yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Ta`lim sohalariga ilg`or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o`rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo`lmaydi.

Mamlakatimizda tahsil oladigan o`quvchi va talabalar odatda uch tilni o`rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o`taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so`z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo`shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet tili bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G`arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o`qitilib kelinmoqda. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun`iy muhitda o`rganiladi. Chet tilini o`qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o`qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Metodikaning asosiy tushunchalari metod, usul, prinsip. Didaktika-nimani o`rgatamiz? o`qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika qanday o`rgatamiz? ta`lim usullari va metodlari demakdir. Metod metodika tushunchasi grek-lotinch "metodos-"metodus" so`zidan olingan bo`lib, ma`lum maqsadga eltuvchi yo`llar, usul ma`nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma`nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma`noda ta`limning konkret dars jarayoni bilan bog`liq tushunchani anglatadi. "Metod" atamasi keng ma`noda o`quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Metodika tarixga oid adabiyotlarini chuqurroq o`rganish shuni ko`rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san`at deydi. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya`ni "yaxshi" yoki "yomon" metod yo`q "yaxshi" yoki "yomon" o`qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda

bayon qilingan fikrlari bilan javob berishi mumkin. U jumladan shunday deydi: "Agar kimki metodikani san'at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo'llanishi bilan qorishtirib yuboradi". Umuman olganda, chet tilini o'qitish metodi deyilganda, chet tilini o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Yangi pedagogik texnologiyalar, masalan, interaktiv darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va boshqa innovatsion texnologiyalar, o'quv jarayonini o'rganuvchilarga qiziqarliroq va samaraliroq qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchi o'zining o'rganish uslubini o'zlashtirishi, o'zini mustaqil o'rganuvchiga aylanishi va o'zining ma'lumotlarini amaliyotda ishlatishi mumkin bo'ladi. Bunday texnologiyalar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani kuchaytiradi va o'quvchi qiziqishlarini yengillashtiradi. O'quvchilar interaktiv darsliklar orqali qiziqarli animatsiyalar, video va audio materiallar orqali ma'lumotlarni oson va samarali o'rganishlari mumkin. Buning natijasida o'quvchilar motivatsiyasi oshadi va ta'lim sifati ham ko'tariladi. Boshqa tarafdin, yangi pedagogik texnologiyalar o'qituvchilarga darsni tayyorlash va o'quvchilarni o'rganish jarayonini monitoring qilishda yordam beradi. Ular o'qituvchilarga ma'lumotlarni boshqarish va ta'lim jarayonini mustahkamlashda katta imkoniyatlar, o'quvchilarning ma'lumotlarni amaliyotda ishlatishiga yordam beradi.

Chet tilini o'qitish metodikasida hozirda madaniyatlararo muloqot iborasi keng qo'llanib kelmoqda. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo'llashimiz mumkin. Aslida esa: Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlarini, qadriyatlarini sistemasi va boshqalar tog'risidagi muloqoti-ma'lumotidir. Mazkur jarayonda o'quvchi-talabalarni o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o'zga mamlakat madaniyatini tog'ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim. Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlilik, bag'rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, "Tee oder Kaffee?" ya'ni "choymi yoki kofemi" degan savolga ona tilimizda, "Tee", "choy"- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob tog'ri kelmaydi. Nemis tilida, "Bitte, Tee" ya'ni, "Marhamat, choy" deb javob beriladi. So'z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi. Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasida malaka va ko'nikma hosil qilinadi.

Mamlakatimizda mana shunday yangiliklarni o'rganish asosida o'quvchilarni yoshlikdan chet tillarini o'rganishlari uchun har bir tuman va shahardan bittadan maktablar tanlab olinib institute va universitetlarga biriktirib berilmoqda, oliy ta'lim muassalarida o'qitish sifatini oshirish maqsadida vazir A.X.Toshkulov shaxsan mas'ulligida turli xil mashg'ulotlar, o'quv seminarlari, xorijiy ta'lim muassalari bilan

hamkorlik aloqalari kengaytirilib yoshlarni ilm olishga, chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borishmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishning sifatini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi takliflar va tavsiyalar berilish mumkin:

1. Interaktiv darsliklar va onlayn ta'lim platformalari: O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rganishda interaktiv darsliklar va onlayn ta'lim platformalari yordamida o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarning ma'lumotlarni oson o'rganishiga yordam beradi va ularni motivatsiyalash uchun foydali bo'ladi.

2. Video darsliklar va animatsiyalar: Xorijiy tillarni o'rganishda video darsliklar va animatsiyalar foydali bo'ladi, chunki ular o'quvchilarga vizual ma'lumotlar orqali o'rganish imkoniyatini beradi.

3. O'quvchilar bilan interaktiv muloqotlar: O'quvchilar bilan interaktiv muloqotlar orqali o'qituvchilar ular bilan aloqa qilish va ularning savollarga javob bermasligiga imkon beradi, ularni mustaqil ravishda ishlatishlari uchun ilhomlantiradi.

4. O'quvchilarning ma'lumotlarini sinovga chiqarish: Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning ma'lumotlarini sinovga chiqarish, masalan, online testlar yoki amaliy mashg'ulotlar orqali ularning o'zlashtirish darajasini tekshirish foydali bo'ladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning ma'lumotlarni amaliyotda ishlatishlari va sinovdan o'tganligini baholashga yordam beradi.

5. Ma'lumotlar bazasi va elektron kutubxonalar: Xorijiy tillarni o'rganishda ma'lumotlar bazasi va elektron kutubxonalar foydali bo'ladi.

Bu tavsiyalar bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda xorijiy tillarni o'qitishning sifatini oshirish uchun muhim usullar hisoblanadi. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishda yordam va o'quvchilarning xorijiy tillarni yaxshi darajada o'rganishlariga imkon beradi. Ushbu tafliklarning ma'lum bir qismi amaliyotga ham tatbiq etilmoqda va ularning natijalari bizni xursand qiladi deyishimiz mumkin.

## **XULOSA**

Xulosa qilib, aytganda ta'lim sifatini oshirish, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'zini va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, I(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Jo'raboyev, B. b. s. (2021). Ingliz tili darslarida haqiqiy materiallardan foydalanish. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2(2).
4. Juraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).
5. O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarori Lex.uz.<https://lex.uz/acts/-5085887>

## O'ZBEK TILIDA IQTISODIY TERMINLARNING TASHQI MANBALARI ORQALI BOYIB BORISHI

**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

SamISI O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasini mudiri, dotsent.

**Annotatsiya:** Bu ilmiy maqolada "Raqobatbardosh iqtisodiyot" ifodasi bilan ifodalangan milliy iqtisodiyot, maqbul sur'atlarga va munosibliklarga asoslangan, xususiyl mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlar, aholi turmush darajasini doimiy ravishda yaxshilanishiga xizmat qiladigan bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlab chiqilgan xo'jalik mexanizmi, ishlab chiqarish resurslari erkin harakatlanadigan va bozor mexanizmi yordamida tartibga solinadigan ochiq iqtisodiy tizim tushuniladi.

**Kalit so'zlar:** Raqobatbardosh iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarish resurslari, ochiq iqtisodiy tizim.

**Аннотация:** В этой научной статье под термином "конкурентная экономика" подразумевается национальная экономика, основанная на оптимальных темпах и приемлемых условиях развития предпринимательской деятельности на основе частной собственности, хозяйственный механизм, разработанный на основе законов рыночной экономики, служащий постоянному повышению уровня жизни населения, открытая экономическая система, в которой производственные ресурсы свободно перемещаются и регулируются с помощью рыночного механизма понятно.

**Ключевые слова:** Конкурентная экономика, народное хозяйство, предпринимательство, рыночная экономика, производственные ресурсы, открытая экономическая система.